

# **MADANIYATNING IJTIMOIY FANLAR VA IJTIMOIY FANLARDA TUTGAN ÓRNI**

**Dilfuza Turdibekova**

**Berdaq nomidagi QDU, Ijtimoiy fanlar yónalishi talabasi**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada madaniyat, madaniyat sotsiologiyasi va socialogik fanlar haqida so'z etilgan. Madaniyatning inson jamiyatidagi ro'li va vazifasi. Madaniyatning paydo bólish ótmishi. Madaniyatning óziga xos individning hayot faoliyatida shakllanishi. Madaniyat tushinchasining sivilizatsiya bilan bogliqli. Tarixiy davrlar madaniyati haqida bayon etiladi.

**KALIT SÓZLAR:** Madaniyat, madaniyat sotsiologiyasi, sivilizatsiya, individ.

## **THE ROLE OF CULTURE IN THE SOCIAL SCIENCES AND THE SOCIAL SCIENCES**

**Dilfuza Turdibekova**

Student of the Sociological Faculty of the Karakalpak State University named after  
Berdakh

**ABSTRACT:** This article discusses culture, cultural sociology, and sociological sciences. The role and function of culture in human society. The history of the emergence of culture. The formation of culture in the life activities of the

individual. The concept of culture is related to civilization. Describes the culture of historical periods.

**KEYWORDS:** Culture, sociology of culture, civilization, individual.

Madaniyat - bu insonlar tomonidan yaratilgan ma'naviy ha'm moddiy boyliklari va qadiriyatlari yiğindisi ya'niy madaniyat insonlarning ijodkorlik faoliyati tufayli yaratilgan va inson faoliyatining mevasi va sifatining kórsatkichi bólíb hisoblanadi.Insonning o'zi ham pirovard natijada madaniyat mevasi bólíb hisoblanadi.Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bólsa,inson ham shunday shakllanadi.<sup>1</sup>

Madaniyat so'zining kelib chiqish tarixiga nazar solsak: Madaniyat arabcha madina (shahar,kent)so'zidan kelib chiqqan bólíb, u tabiyat va o'z aro munosabatlardan shakllangan insin ijodkorligining o'ziga xos faoliyati bólíb hisoblanadi. Madaniyat óziga xos individning umr rivojini,sotsial guruhning yoki jamiyatning umr sharoitini shakllandiradi. Dastlabki vaqtarda madaniyat tushunchasi insonning tabiatga, maqsadga bogliqli ta'siri (yerni ishlash va nihol ekish v.h.k.) hamda insonning o'zini tarbiyalash va óqitish ma'nolarini anglatgan. Keyinchalik bólsa madaniyat tushinchasi orqali tsivilizatsiya bilan bogliqli mazmun tushinila boshladi. Madaniyat jamiyatdan tashqari paydo bólmaydi. U jonli tarzda jamiyat bilan bogliqli bóladi.Bugungi kunda madaniyatning rivoshlanish bosqichlarini, uning jamiyatda tutgan órnini órganuvchi fanlar bor.Bular: sotsial filosofiya, sotsiologiya, etnologiya,etnografiya, madaniy va sotsial antropologiya, madaniyat

---

<sup>1</sup> Filosofiya qamusiy lug'at. Q.Nazarov T.2004 230-bet

sotsiologiyasi va filosofiyasi . Bu sotsial fanlarning barchasi emperik ma'lumotlarni tóplam va ularni analiz qilish orqali turli jamiyat va davrlarga tegishli bólgan madaniyatlarni bir-biriga bog'liqli ravishda órganadi. Ular orasidagi farqni ham chegarani aniqlash qiyin masalalarning biri bólub hisoblanadi. Shu kunga qadar bu fanlarni órganib yurgan olimlar ya'niy shu fanlarning' yaratilishiga sababchi bólgan turli maktab va yónalishlarga asoslangan holda ularni bir-biridan ajratib kelmoqda.

Madaniyat hodisasini órganuvchi sotsial fanlarning barchasi unga o'z tadqiqot obiekti va predmeti ko'z qarashdan kelib chiqib yondashadi. Ammo, ular orasidagi farqlar bugungi kunga qadar abstraktligicha qolmoqda.

Kundalikli hayotda "madaniyat" atamasini qóllar ekanmiz, ongning yóqori kategoryalari bólgan sanoat,adabiyot,qóshiq,rassomchiliklarni nazarda tutamiz. Sotsiologiyada madaniyat tushinchasi inson tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha faoliyatlar natijasi sifatida tushiniladi.<sup>2</sup>

Madaniyat sotsiologiyasi -inson faoliyatining har turdag'i tarkiblik hamda mazmunan tarafidan analiz etib, uning rivoshlanish tendensiyalarini sotsial tizimi hamda sotsial institutlarga bog'liqli ravishda órganuvchi fan bólub hisoblanadi.Barcha sotsial fanlar qatori madaniyat sotsiologiyasi fanining ham assiy muaommosi "inson" hisoblanadi va madaniyat sotsiologiyasi insonning dunyo bilan aktiv munosabatini ham bu munosabatlar uning hayot yólida paydo bólishini órganadi. Shuning uchun madaniyat ko'p qirrali jarayon bólub, faqat gina qadiriyatlar tizimi orqali uning bor ma'no-mazmunini tushinish mumkin. U insoniyat madaniyat tarixi haqida,turli tarixiy davrlar madaniyati haqida (masalan

---

<sup>2</sup> Л.Г.Ионин "социология культуры" м.1998

antik davr, órta asrlar, uygonish davr) turli millat va ellar madaniyati haqida(fransuz,o'zbek Qirgiz v.h.k) diniy madaniyatlar haqida (buddizm,Islom,xristianl) turli sotsial va professional guruhlar madaniyati haqida (qishloq,dehqon xójaligi,fermer xójaligi,sotsial guruhlar v.h.k.) va óziga xos tan olingan shaxslar madaniyati haqida (Konfutsiy,Farobiy,Navoiy,Gandi v.h.k.)ko'pchilik ma'lumotlar berishi mumkin.

Madaniyat Sotsiologiyasi tarmoqli sotsiologik teoriya bólub, uning órganish obiekti jamiyatda madaniyatning faoliyat ko'rsatish va rivoshlanish qonuniyatları, shu qatori madaniyat normalarini yiğish, o'zlastirish va saqlash ideyalar,qadiriyatlar, xulq-atvor namunalari odamlar órtasidagi munosabatlar, jamiyat va tabiat órtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchu vazifani bajaradi.

Talkott Parsonsning strukturik funksionalizm madaniyat sotsiologiyasining predmetining kuchli sohasiga yordam beradi, sababi u madaniy determinizmga asoslanadi va shuning uchun madaniyat jamiyatining barcha toifalarining barchasi ham rivoshlanishning ustuni bólub hisoblanadi.

Madaniyatni órganishga sotsiologik yondashuv bilan uning ijtimoiylik tomoni ahamiyatli boladi.Madaniyat sotsiologiyasi vazifalarining biri manfaatlari, ustinliklari va ýonalishlarni o'z ichiga qadiriyatlarning shakllantirish bosqichlarini sotsiologik órganish amalga oshiradi. Madaniyat atamasiga berilgan har xil ta'riflar madaniyatning ko'p qirrali ekanligini bildiradi. Madaniyatga bag'ishlangan adabiyotda ko'rsatishicha, bugungi kunda "madaniyat" atamasiga yuzdan ortiq ta'rif berilgan.<sup>3</sup>

Shunday qilib madaniyat sotsiologiyasida e'tibor faqat jamiyatning rivoshlanish darajasiga yoki inson qóli va aqlining yemishi ógalabasidan qanday maqsadlarda foydalanishga ham qaratilgan. Ular ko'p qirrali yakka rivosanishga xizmat qiladimi,

ulardan insonparvarlik maqsadlarida foydalanadimi yoki yóq va shu kabilarga aniq e'tiborr beradi. Bunda shaxs bir vaqtning o'zida madaniy rivoshlanishning obiekti va subiekti sifatida ham harakat qiladi. O'z navbatida madaniyat odamlar va jamiyatni insonparvarlik sifatida qaraladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Filosofiya qamusiy lug'at. Q. Nazarov T.2004.
2. Социология культуры. Л. Г. Ионин, М Логос.1998
3. Мировая культура E.Axmedova,R. Gabidulin T. 2001